

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Х.Хакимов, А.А.Абдумаликов, Ё.З.Нуриддинов**

Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.) ..... 5

**D.E.Normatova, S.N.Muxammadova**

Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari ..... 12

**N.M.Axmadiyev**

Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 15

**Д.А.Исаева**

Влияние медиа на развитие античной философской мысли ..... 18

**I.A.Asatulloev**

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati ..... 22

**O.B.Shokirov**

Yangi O'zbekistonning ma'nnaviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 28

**R.B.Abduraxmonov**

Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 32

**X.J.Toshpo'latov**

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari ..... 36

**A.I.Abdullaxo'jaev**

Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil ..... 39

**I.T.Yuldashev**

Jamiyat ma'nnaviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili ..... 43

**A.A.A'zamjonov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari ..... 47

**M.K.Soipova**

Fazl Ibn Ahmad ta'lilotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili ..... 51

**S.F.Abdusattarova**

Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society ..... 55

**S.R.Xoldarov**

Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ..... 60

**Sh.B.Samanova**

Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni ..... 66

**R.Orziboyev**

G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili ..... 70

## SIYOSAT

**Z.Sh.Turg'unboyev**

O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdag'i imkoniyatlar ..... 74

**Ф.М.Бафоев**

Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике ..... 80

**A.To'xtasinov**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ..... 84

**U.U.Sattarov**

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar ..... 88

**B.T.Shokirov**

Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar ..... 94



**JAMIYAT MA'NAVIY YANGILANISHI JARAYONIDA MINIATYURA SAN'ATINING O'RNI  
VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**РОЛЬ ИСКУССТВА МИНИАТЮРЫ В ПРОЦЕССЕ ДУХОВНОГО ОБНОВЛЕНИЯ  
ОБЩЕСТВА И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ**

**THE ROLE OF MINIATURE ART IN THE PROCESS OF SPIRITUAL RENEWAL OF  
SOCIETY AND ITS SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS**

Yuldashev Ibroxim Tuychiyevich Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada miniatyura san'ati tushunchasi, takomil bosqichlari va uning ilmiy nazariy va metodologik asoslari, jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning analitik tahlili, yoshlar estetik dunyoqarashini yuksaltirish integratsiyasida miniatyura san'atining ijtimoiy zaruriyati o'rganilgan. Shuningdek, jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni tahlil qilingan.*

**Аннотация**

В статье исследуется понятие искусства миниатюры, этапы его развития и его научные теоретико-методологические основы, роль искусства миниатюры в процессе духовного обновления общества и ее аналитический анализ, а также социальная необходимость искусства миниатюры в интегративном совершенствовании эстетического мировоззрения молодежи. Также проанализирована роль искусства миниатюры в процессе духовного обновления общества.

**Abstract**

*The article studies the concept of miniature art, its stages of development and its scientific theoretical and methodological foundations, the role of miniature art in the process of spiritual renewal of society and its analytical analysis, the social necessity of miniature art in the integration of improving the aesthetic worldview of young people. The role of miniature art in the process of spiritual renewal of society is also analyzed.*

**Kalit so'zlar:** yoshlar estetik dunyoqarashi, miniatyura, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos, integratsiya, ma'naviy qadriyatlar, analitik tahlil.

**Ключевые слова:** эстетическое мировоззрение молодежи, миниатюра, системно-функциональный анализ, теоретико-методологическая основа, интеграция, духовные ценности, аналитический анализ.

**Key words:** youth aesthetic worldview, miniature, systemic-functional analysis, theoretical-methodological basis, integration, spiritual values, analytical analysis.

**KIRISH**

Jamiyatning ma'naviy yangilanish jarayonida barcha san'atlar kabi miniatyura san'atining ham o'ziga xos o'rni bor. Xalqimizning ma'naviy xazinasidan munosib joy olgan miniatyurlar Sharq xalqlarining badiiy va moddiy me'rosidir. U an'anaviy kitobat san'atining tarkibiy qismi bo'lib, qadimiy nodir qo'lyozmalarini ziynatlash bilan birga, mazkur asarlardagi ilg'or insonparvarlik g'oyalari, oljanoblikka bo'lgan intilish, go'zallik to'g'risidagi tasavvurni ifodalashga ham hizmat qilgan. Turli xattot, rassom, muzahhib, muqovasoz, jadvalkash va boshqalarining ijodiy hamkorligida yaratilgan nodir qo'lyozmalar o'sha davr madaniy, ijtimoiy hayotini hamda badiiy-estetik qarashlarini o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Miniatyura san'atining mazmun-mohiyatini ifodalovchi hamda estetik madaniyatni yuksaltirish masalalariga G'arb rassomlari ham o'zlarining dastlabki falsafiy sharxlarini bergenlar. G'arb mamlakatlari miniatyura san'atining falsafiy mohiyati, uning estetik ahamiyati, tarbiyaviy funktsiyalari, rivojlantirish masalalari bilan Leonardo do Vinci, Bokachcho, Alberti, Donatello, Mikelandjelo, Rafael kabi mutafakkirlar alohida e'tibor qaratganlar. Ular o'zlaridan badiiy va san'at asarlarini yaratib qoldirganlar va Uyg'onish davrida san'at va dunyoqarashni vujudga keltirishida muhim rol o'ynaganlar.

Y.Boryev, L.I.Rempel, N.N.Rostovsev, G.A.Pugachenkova, O.I.Galerkina, A.A.Semyonovlarning asarlarida Sharq miniatyura san'ati namunalari estetik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, G.A.Pugachenkova, K.Akilova, N.Normatov, A.Xakimov, S.A.Xaydarov kabi mamlakatimiz olimlari tadqiqotlarda miniatyura san'atining metodologik muammolari, estetik xususiyatlari, tarbiyaviy funksiyalari, estetika kategoriyalarini olimlar o'zlarining nuqtai nazaridan asoslashga harakat qilingan. L.R.Usmonova, B.Orlov, A.Turdaliyev, N.Normatova, N.Abdullayev, O.Usmonov, Sh.Shoyoqubov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida esa muammoning turli aspektlari o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarda miniatyura san'atining o'ziga xosligi kabi masalalarni estetik jarayon sifatida tahlil qilingan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insoniyat paydo bo'lishi bilan uning tili, urf-odatlari, an'analari, dini, madaniyati, ezhulikni ifodalovchi axloqiy fazilatlari vujudga kela boshlagan. Ularning mazmunida xalqning qadriyatları: hayat tarzi, ruhiyati, ma'naviyati, madaniyati, turmush tarzi, o'y-xayollari aks etgan. O'tmishda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni masalasiga katta e'tibor berilib, ular ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning maxsuli, jamiyat ma'naviy kamolotining muhim omili ekanligi ta'kidlab kelingan.

Inson ma'naviyatini yuksaltirish, ajdodlarimiz ilmiy merosini, keng targ'ib etish, yoshlar orqaligina taraqqiyotimizga to'sqinlik qilayotgan illat va muammolarni bartaraf etish mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar chuqurlashuvi barcha sohalarga, shu jumladan, shaxs ma'naviyatni yanada yuksaltirishga qaratilgandir.

Qadriyatlar millatning madaniyati va jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi natijasida vujudga kelgan moddiy boylik va ma'naviy merosining ifodasiidir. Shu bilan birga ular o'zbek millatining qadr-qiymati, dunyodagi o'rni va salohiyatni ham namoyon qiladi. Milliy qadriyatlarini ko'z qorachig'idek saqlash, asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish millatga mansub har bir kishi va avlod uchun ustivor vazifaga aylandi.

Qadriyatlar masalasini nazariy jihatdan idrok etish tarixan falsafiy ong jarayoni rivojlanishi bilan bir vaqtida vujudga kelgan. Falsafiy ong butun olamning ichki aloqalarini bilish bilan birga, insonning atrof-muhit, jamiyatga qadriyatli munosabati yo'nalishlarini belgilaydi.

O'rta Osiyo mutafakkirlari o'zlarining falsafiy asarlarida real olamni va tasavvurlar olamini sharaflash bilan birga jamiyatdagи kamchiliklarni tanqid ham qilganlar, jumladan, atrof-muhitga qadriyatli munosabatda bo'lganlar, uni muayyan tarzda ifoda etganlar.

Xo'sh qadriyat o'zi nima? Umuman olganda, qadriyatlar, jamiyat yoki halq tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy axamiyat kasb etadigan ma'naviy va moddiy boylikdir.

Qadriyatlar muammosi turli davrlarda O'rta Osiyolik mutafakkirlar o'zlarining ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlarida qadriyatlar muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etishga e'tibor berganlar. Insoniyat tarixining burilish nuqtalarida qadriyatlarni ilmiy baholash va idrok etish masalasi birinchi galda inson manfaatlari, ezgu va istaklariga qaratiladi. Mazkur jarayon har bir fuqaroni ma'naviy, axloqiy va siyosiy jihatlarini shakllanishini taqazo etmoqda. Shuningdek, demokratik islohotlar davrida qadriyatlar muammosini tadqiq etish bugungi kunda faylasuf olimlar tomonidan amaliy jihatdan rivojlantirib borilayotganligini alohida ta'kidlash o'rnlidir.

"Buyuk ajdodlarimiz o'z taqdirlarini xalq taqdiridan ajratib qaramaganlar. Ularning buyukligi shunda. Har bir avlod ajdodlarining buyukligiga qarab qaddini rostlaydi... Buyuk mutafakkirlarimizning falsafiy, axloqiy, ma'naviy merosi ular yashagan zamoni, kamol topgan makoni doirasidan chiqib, umumbashariy qadriyatga aylanib ketganidadir".

Qadriyatlar ijtimoiy, moddiy va ma'naviy hodisa bo'lsa ham ularning ahamiyati va mohiyati kishilarning unga nisbatan bo'lgan munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushuncha o'zi xam qadr-qimmat degan ma'noning o'zagidan olingan. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma'naviy omillar yig'indisidir. Qadriyatlar falsafiy jihatdan ikkiga, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga bo'linadi.

"Qadriyatlar ijtimoiy-falsafiy merosda ular o'z aksini topgani uchun ularga munosabat, masalan, vorislik, ibrat, ixlos ham rang-barang, goho ziddiyatlidir". Qadriyatlarning mazmunini, mohiyatini ilmiy asosda tushunish inson va uning manfaatlari nuqtai nazaridan bilish va qadrlash, inson yaratuvchan faoliyatini jadallashtirish, takomillashtirishga imkon beradi.

## FALSAFA

Mamlakatimizning taniqli faylasuf olimlari o'z asarlarida qadriyatlar mohiyatini ochishda, falsafiy jihatlarini tadqiq etishda uning mazmuni va strukturasini taxlil qilishda munosib hissalarini qo'shmoqda. Qadriyatlarga berilayotgan mustaqil ta'riflardagi xilma-xillik mazkur tushunchaning ko'lami naqadar keng va ko'pqirrali ekanligi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan talaygina jihatlar mavjudligidan dalolat beradi. Mahalliy olimlardan M.Imomnazarov mas'uliyatni takomillashishida ilm bilan iymonning uyg'unligiga quyidagicha ta'rif keltiradi: "Ilm va imon insonga mas'uliyat yukini yuklaydi". Yuqorida keltirilgan talqinlardan ko'rinish turibdiki, G'arb va Sharq falsafiy qarashlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ta'kidlash joizki, Sharq axloqi negizida islam qadriyatlari yotadi.

Mavjud ilmiy-falsafiy adabiyotlarda ma'naviy qadriyatlar mohiyatini ta'riflashda tushuncha bilan u ifodalaydigan jarayonni ayniylashtirish va buning oqibatida qadriyatlarga o'ta jo'n ta'rif berish xolatlari ham uchraydi. Jumladan, akademik J.Tulenovning fikricha, "Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui". Holbuki, tushunchani falsafiy mohiyatini ta'riflashda uning hamma belgilari emas, balki namoyon bo'lish shakllari va funksional o'zgarishlarini oshib berish zarurdir. Biroq tushunchani ta'riflash, bu – o'sha tushunchada ifoda etiladigan predmetlarning har tomonlama aks etishi degani emas, albatta. Tushuncha falsafiy mazmundagi ta'rifida uning eng muhim belgilarnigina ajratib ko'rsatilishi kerak.

Ma'naviy qadriyatlarning shakllanishida har ikki holatning ta'siri kuzatiladi. Bunday qadriyatlar ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan madaniy, ma'rifiy, axdlqiy, diniy, huquqiy, ilmiy kabi turlarga bo'linadi. Ular insonning aqli, kamoloti, dunyoni bilish maqsadi, bilimlarning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida namoyon bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlarning inson tarbiyasi va jamiyatdagi o'rniga doir asosiy funksiyasi ana shu bilan bog'liq. Ushbu qadriyatlarning yana bir muhim jihat shuki, ularning ba'zilari insoniyat tarixi davomida astasekin shakllanadi va takomillashib boradi. Shu bilan birga ma'naviy qadriyatlар va qadriyat mezonlari muayyan jamiyat ma'naviyati va unga mansub kishilarning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirish funksiyasini ham bajaradi.

Professor Q.Nazarov ta'kidlaganidek, qadriyat tushunchasini haddan tashqari keng talqin etish ham, uning ma'nosini toraytirish ham birdek xatodir. Qadriyat ilmiy tushunchalardan farqli ravishda obrazli – mavhum tushunchadir. Ya'ni qadriyat deganda hamisha ijobjilik, foydalilik, yoqimlilik, taraqqiyot, go'zallik, insoniylik, ezgulik tasavvuri tug'iladi. Shu o'rinda tadqiqotchi M.S.Kagan ta'kidlaydiki, "Qadriyatlarni uning obyektidan farqlamaslik, ya'ni ularni ayniylashtirish ham, yoki uni "foydalilik", "zaruriylik" singari obyektiv holatlar bilan tenglashtirish ham xatodir. Xuddi shuningdek, qadriyatlarni ijobjiy va salbiy, ilg'or va qoloq kabilarga ajratish ham, sinfiy qadriyatlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo'yish ham maqsadga muvofiq emas. Chunki ularning ba'zilarida qadriyatlarning ijtimoiy muhit va ma'naviy-axloqiy talablar bilan bog'langaniga ko'proq e'tibor berilsa, boshqalarida qadriyatlarsiz kishining ma'naviy qiyofasi va ruhiyatining asosiy belgilari bilan bog'lab talqin qilinadi.

## XULOSA

Shuning uchun ham ma'naviy merosda bahstalab, tortishuv va erkin fikr almashish, intellektual munozara orqali hal etiladigan mavzular ko'p. Bizning fikrimizcha, ushbu bahs, munozaralar intellektual tayyorgarlikka ega, tadqiqot predmetidan yaxshi xabardor, uning muammolarini biladigan aql egalari o'tasida olib borilgani ma'quldir. Tanqidiy yondashmaslik, obyektiv baholamaslik ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi, tarixiy tafakkurning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, xolos. Ammo tanqidiy yondashish, R.Rahmonov va F.Fayziyev yozganidek, "O'tmishni qoralashga, kamsitish va soxtalashtirishga qarshilik uni ideallashtirishga ham olib kelmasligi kerak. Bunday hol ham milliy ong o'sishidagi biryoqlamalikni ko'rsatadi. Tarixni, milliy madaniyatni va milliy xususiyatlarni ideallashtirish ilmiy haqiqatni izlash yo'lidagi bir yoqlamalikning ikkinchi tomonidir. Ayrim ziyyolilar ba'zi hollarda tarixiy voqealarni yoritishda, shaxslar faoliyatiga va ularning ma'naviy merosiga baho berishda, milliy va diniy an'analar, rasm-rusumlar, urf-odatlarni baholashda bo'rttirishlarga yo'l qo'yayotganliklarini ko'rish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз асослари. –Тошкент: 2006. –Б. 266.
- Исмоилов Ф. Қадриялар ва ёшларнинг тарихий онгини шакллантириш. // Қадриялар ва ижтимоий тараққиёт. –Тошкент: Ўзбекистон. 1997.

3. История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. В 5 тт., т. 1. -М.: Академия художеств. 1962.
4. Назаров Қ. Қадрлаш фалсафаси.// Халқ сўзи. 1999. 10-апрель
5. Очилова Б. Шахс маънавий камолотида ихлосмандлик ва ибрат бирлиги. –Тошкент: Ўзбекистон. 2004.
6. Рахимов И. Мантиқ. –Тошкент: Университет. 1994.
7. Тўленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. –Тошкент: Ўзбекистон. 1998.
8. Умаров Э., Абдуллаев М., Хакимов Э. Эстетика. –Т.: Узинкомцентр, 2003